

WORD COMBINATION IN UZBEK LANGUAGE

Eshquvvatova Laylo Jórabek qizi

*1st year student of Termiz State Pedagogical
Institute, Faculty of Languages, Uzbek
language and literature,*

Annotation: *In this article, we will talk about what a word combination is and what parts it is made of, and the ways of connecting words and words in SB.*

Keywords: *Word combination, speech, word, phrase, governor, subordinate, connection methods, management, adaptation, agreement, expander.*

Introduction

Biz nutqda fikrimizni gaplar orqali ifoda etamiz. Gap tugallangan fikrdir. Gap óz navbatida sózlardan ,sóz birikmalaridan tashkil topgan. Sóz lisoniy birlikdir, sóz birikmasi esa sózlarning nutqda bog'lanishidan hosil bóladi. Ózbek tilida sóz birikmasi bólishi uchun ma'lum bir shartlar mavjud:

- 1) kamida ikkita sózdan iborat bólishi lozim: maktabning bog'i. Maktab,bog' sózlari alohida sóz birikmasi bóla olmaydi;
- 2) bu sózlar ma'no jihatdan mos bólishi kerak: gulni uzmoq. Ammo "derazani sindirmoq" birikmasida moslik yóq, ya'ni "derazani" emas, "oynani sindirmoq" bóladi, shuning uchun bu birlik sóz birikmasi bóla olmaydi;
- 3) sózlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya'ni tobelanishi zarur: qiziqarli kitob, qiziqarli kino kabi.Lekin maktab va bog', kitob,daftar sózlari sôz birikmasi bóla olmaydi,bu sózlarda tobe bog'lanish yóq. Bu sózlarda teng bog'lanish mavjuddir;
- 4) qóshimcha va yordamchi sózlar mustaqil sózlarni bog'lashi zarur: daftarga yozmoq singari .

Bog'lanish uchun ham kmos qóshimchani qóllash kerak bóladi: daftarni sotib olmoq

kabi, ammo daftarni yozmoq birikmasi bôlmaydi ,chunki bu yerda – ni qóshimchasi notóg’ri qóllangan.

Ózbek tilida teng va tobe bog’lanish mavjud. Teng bog’lanish sóz qóshilmasini, tobe bog’lanish esa sóz birikmasini hosil qiladi.

Bir mustaqil sóz boshqa mustaqil sózni izohlaydigan bog’lanish tobe bog’lanishdir.

Sóz birikmasi ikki qismdan iborat bôladi. Sóz birikmasida ma’nosi izohlanayotgan sóz hokim va uning ma’nosini izohlovchi sóz tobe sóz deyiladi (masalan, daftarni olmoq birikmasida daftarni tobe va olmoq hokim a’zo). Ózbek tilida tobe sóz oldin,hokim sóz keyin keladi. Badiy nutqda órin almashishi bundan mustasno. Hokim sóz kengayuvchi va tobe sóz kengaytiruvchi sóz deb ham ataladi.

Sóz birikmasi hokim sózning qaysi turkumga oid sóz bilan ifodalanishiga kóra ikki guruhga bólinadi: otli sóz birikmasi, fe’lli sóz birikmasi. Otli sóz birikmasida hokim sóz sifat ,ot, olmosh, otlashgan sózlar , ravish sózlari bilan ifodalagan birikmalar kiradi. Fe’lli sóz birikmasiga esa fe’l sóz turkumidagi sózlar bilan ifodalangan hokim sózlar kiradi. Masalan, otli sóz birikmasi: daftarni varag’i, chumchuqning chug’ur-chug’uri, olmaning ikkitasi, gullarning barchasi, ôqdan tez; fe’lli sóz birikmasi: tez yozmoq, idishlarni yuvmoq, tez yugurmoq, bola óqigan kabi.

Sóz birikmasida bog’lanish usullari uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu bog’lanishlarni farqi birliklarni bog’layotgan qóshimchalar va ohangdir. Bitishuv sóz birikmasi ohang orqali hosil bôladi. Moslashuv kelishik qóshimchasi –ning orqali biriksa, boshqaruv sóz birikmasi kelishikning - ning ya’ni qaratqich kelishigidan boshqa barcha turi bilan,kómakchilar ,ravishdoshlar, sifatdoshlar kabi vositalar orqali hosil bôladi.

Misollar:

Bitishuv sóz birikmasi: tilla tish, chiroyli gul, yaxshi sózlamoq, tez gapirmoq óquvchilarning uchtasi,kumush uzuk;

Moslashuv sóz birikmasi: kitobning varag’i, uyning eshigi, buloqning kózi, ularning ikkitasi;

Boshqaruv sóz birikmasi:óqiyotgan bola, kitobni óqimoq, bolaga qaramoq, undan katta, bayramga bormoq, ishda qolmoq.

Sóz birikmasi tobe sózning qaysi gap bólagi bólib kelayotganiga qarab aniqllovchili, holli, tóldiruvchili turlarga ham bólinadi:

- 1) Aniqllovchili SB: gulning beshtasi, Navoiyning g’azali;

- 2) holli SB: birdan gapirmoq, tezda kelmoq, birpastda bólmoq;
- 3) tóldiruvchi SB: bog'ni kórmog, gulni parvarishlamog maktabga bormog, undan chiroyli.

Sóz va sóz birikmasi bir emas. Sóz bir tushunchani ifodaydi, sóz birikmasida esa birdan ortiq tushuncha munosabatga kirishgan holda voqelanadi. Sôz asosida leksema va morfema hamda ularning birikuv qonuiyati yotsa, sóz birikmasiga leksemalar birikuvini tartibga soluvchi lisoniy sintaktik qilib (ISQ) asos bóladi. Sóz keng ma'noni ifodalasa, sóz birikmasida ma'no torayadi. SB boshqa sózni óziga biriktirib shakliy jihatdan kengayishi bilan ma'no tarafdán torayib boradi, masalan, yuvmoq fe'lida ma'no hozircha keng, ammo yuvmoq fe'liga idishni yoki kirni sózlarini biriktirsak shakl kengayib, ma'no torayadi.

Sóz birikmasida ya'na bir jihat kópchilik gaplarni sóz birikmasiga ajartayotganda sózlarini bog'lansa bóldi deb, shunday qóshib qóyishadi. Bu notóg'ri. Sóz birikmasiga ajartayotganda matiqqa ham e'tibor berish kerak. Ajratayotganda ya'na narsani oldi shaklida emas, balki narsani olmoq shaklida ajratish maqsadga muvofiq bóladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Boqiyeva G. va boshqa. Hozirgi ózbek adabiy tili. - T.:FTM, 2009.
2. Ózbek tili grammatikasi. T.II. Sintaksis.- T.: Fan, 1976.
3. Ona tili órta maktablarning 8- sinf uchun darslik. M .Qodirov va boshq.- T.: Chólpon nomidagi NMIU. 2019.